



REAL
SCIENTIFIC PRODUCTION CENTER

Toshkent — 2025 y.

KIRISH



Mazkur albomda 3 ta dasturiy ta'minot to'g'risida so'z boradi. Birinchi, TCCC standartlari asosida tayyorlangan jang maydonida yaradorlarga tibbiy yordam ko'rsatish algoritmlarini o'rgatuvchi **"MARCHPAWS^{XR}"** loyihasi.

Ikkinchi, harbiy askar va yoshlarning jangovarlik ko'nikmalarini oshiruvchi **"Tactical Defense"** dasturi (jangovar o'yin shaklida).

Uchinchi esa oldingi 2 ta dasturning xavfsizlik tizimini ta'minlovchi, ularni boshqaruvchi, ma'lumotlarini saqlab, natijalarini analitik kuzatish imkonini beruvchi **"Instructor Dashboard"** dasturi. Bular to'g'risida keyingi varoqlarda batafsil ma'lumot berilgan.



TCCC NIMA VA UNI NEGA O'RGANISH ZARUR?

TCCC (Tactical Combat Casualty Care) – bu jang maydonida yaradorga taktik yordam ko'rsatish.



MINIMAL O'LIM KO'RSATKICHI

Jahon bo'yicha TCCC standartlari asosida barcha askarlarini o'qitgan harbiy qismlar zamonaviy urushlar tarixida oldini olish mumkin bo'lgan o'lim holatlarining eng past ko'rsatkichiga erishganlar.



AQSHDA ASOSIY STANDART

Hozirda TCCC AQSh qurolli kuchlarining barcha tarmoqlarida va AQShning ko'plab ittifoqchi davlatlarida jangovar sharoitlarda yaradorlarga yordam ko'rsatishda asosiy standart sifatida qo'llaniladi. Shuningdek, TCCC asosida tayyorlanadigan shifokorgacha bo'lgan jarohatlar bo'yicha o'quv mashg'ulotlari AQSh fuqarolik sohasida ham kengayib bormoqda.



HARBIY / FUQAROLIK FARQLARI

Shifokorgacha bo'lgan jarohatlar bo'yicha yordam ko'rsatish harbiy va fuqarolik sharoitlarida keskin farq qiladi. TCCC aynan ushbu farqlarni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan. AQSh qurolli kuchlarida standart sifatida qabul qilingan TCCC tayyorgarligidan AQSH Mudofaa vazirligi tizimidagi barcha xodimlari o'tishi majburiy hisoblanadi.



MUAMMO VA UNGA YECHIM

Nega jang maydonida oldini olish mumkin bo'lgan o'lim holatlari ko'p kuzatiladi? Ularning oldini olish mumkinmi? Javob: – ha, TCCC orqali. Statistika bilan ko'rib chiqamiz.

OYOQ-QO'LDAN QON KETISH NATIJASIDAGI O'LIM STATISTIKASI:

VETNAM URUSHIDA (1970 YIL):		OEF + OIF (2003/4 AND 2006):	
2600 jarohatlangan askardan		982 halok bo'lganlar askardan	
193 nafar	7,4 %	77 nafar	7,8 %

TURNIKETLAR 2005–2006-YILLARDAN BOSHLAB KENG JORIY ETILA BOSHLAGACH.

2012 (OEF VA OIF – 2011-YIL IYUNGACHA):	
4596 o'limdan	
119 nafar	2,6 %
67% ga kamayish.	



TCCC TATBIQ QILINGACH

AQSHdagi "75-Ranger polki" natijalari

- 75-Ranger polkida TCCC tatbiq qilindi.
- Polkdagi barcha askar va shifokorlar TCCC bo'yicha o'qitildi.
- Rangerlar orasida oldini olish mumkin bo'lgan o'limlar darajasi: 3% ni tashkil qildi.
- Ayni paytda AQSh qurolli kuchlaridagi umumiy ko'rsatkich esa: 24% edi.

Xulosa: **TCCCNi qo'llash mumkin va uni zudlik bilan amalga oshirish kerak.**



LOYIHAGA TAVSIF

MARCHPAWS^{XR} dasturiy ta'minoti jang maydonida yaradorlarga birinchi yordam ko'rsatish algoritmi hisoblanib, NATO davlatlari harbiy tibbiyoti standartlari (TCCC) asosida, milliy kontingentga yuqori urg'u berilgan holda, ilg'or jahon texnologiyalari integratsiyasida, real jang moydoni bilan uyg'un shaklda ishlab chiqilgan.

INTENSIV / INTERAKTIV TA'LIM

Ushbu keng qamrovli simulyatsion dasturlar majmuasi orqali harbiy tibbiyotga oid nazariy va amaliy bilimlarni harbiy kadrlarga intensiv hamda interaktiv tarzda kompleks o'rgatish maqsad qilingan.



Loyihada harbiylar va yoshlarda vatanparvarlik ruhini oshiruvchi kontentlardan ko'proq foydalanilgan.




MARCHPAWS^{XR} LOYIHASI STRUKTURASI

ZALLAR JOYLASHUVI:

1. Kirish zali.
2. Mundarija zali.
3. Nazariy bilim olish zali.
3A – Sun'iy intellektdan foydalanish maydoni.
4. Amaliy bilim olish zali:
 - a) tog'li hududda;
 - b) sahroda;
 - c) suvda;
 - d) qorda;
 - e) yomg'irda;
 - f) shamolda;
 - g) tumanda;
 - h) shahardagi tartibsizlik holatida;
 - i) favqulotda vaziyatlarda;
 - j) o'rmonda;
 - k) qorong'uda;
 - l) kimyoviy, biologik, radiologik yoki atom qurol qo'llanilganda.
5. Ma'naviy-ma'rifiy zal.

LOYIHA CHIZMASI



HAMKORLIK NATIJASIDA

Mazkur loyiha O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari harbiy tibbiyot akademiyasi professor-o'qituvchilari bilan hamkorlikda tayyorlangan.

IJOBIY SINOV DALOLATNOMASI

Akademiyaning mutaxassislari tomonidan sinab ko'rilgan hamda ijobiy sinov dalolatnomasi rasmiylashtirilgan.

ILMIY ASOSLANGAN TAQRIZLAR

Akademiyaning 5 ta kafedralari mudirlaridan 5 ta ilmiy taqrizlar olingan.



Loyihani tayyorlashdan oldin HTA bilan hamkorlik memorandumini imzolangan.

Mazkur loyiha ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik faoliyatlari natijasida ishlab chiqildi.



REALISTIK SSENARIYLAR

MUSTAQIL TA'LIM



Dasturdagi barcha bilim va amaliy ko'nikmalar mashg'ulotlar ssenariylari asosida virtual reallik qurilmalari orqali, o'rgatuvchi mutaxassislar ishtirokisiz, mustaqil o'rganishga mo'ljallab ishlab chiqilgan.

BOSIMGA BARDOSHLILIK



Loyihadagi amaliyotlar jang paytidagi bosim ostida inson hayotini saqlab qolishni mashq qildiruvchi interaktiv jang maydonlari ssenariylari asosida tayyorlangan.

ALFA, BETTA / GAMMA



Realistik ssenariylardan iborat, yuqori sifatli, takrorlash imkoniyatiga ega va qulay mashg'ulotlar majmuasi o'quv dasturlari tajribali harbiy tibbiyot o'qituvchilari bilan birgalikda ishlab chiqilgan va 3 boshqichli: alfa, betta va gamma sinovlaridan o'tkazilgan. Shuningdek, harbiy protokollar va klinik amaliyot ko'rsatmalariga asoslanadi.



Loyihada
jarohat
ssenariylari
tibbiy
ssenariylar
mavjud.

07



KENG QAMROVLI SIMULYATSIYA

MASSIV EHTIYOJ



Bungungi kunda ko'plab mamlakatlar harbiylari harbiy tibbiyot mashg'ulotlarining keng qamrovli simulyatsion yechimlariga ehtiyoj sezmoqda.

MULTIPLAYER. – NECHTA FOYDALANUVCHI?



MARCHPAWS.XR dasturidan bir vaqtda birgalikda foydalanishi mumkin bo'lgan foydalanuvchilar soni: 12 nafar. Biroq, buyurtmachilar talabiga ko'ra ularning miqdori oshirilishi yoki kamaytirilishi mumkin.

OPTIMAL YECHIM



Ushbu dasturdagi keng qamrovli simulyatsiyalar esa boshqa ko'plab afzalliklari bilan birga jang maydonidagi tibbiy yordam ko'rsatish tezligini oshirishga, birinchi yordam ko'nikmalarini yaxshiroq qayta o'zlashtirish va doimiy shay holatda turishga, real yaradorlarga qisqa vaqtda samarali yordam ko'rsatishga va kamroq tibbiy xatolar qilishga yordam beradi.

Loyihadan foydalanish asnosida harbiy askarlarning mashq qilishi uchun sarflanadigan individual tibbiy jamlanmalari va buning natijasida hukumatlarning katta miqdordagi mablag'lari tejallishiga erishiladi.





TIZIMLI TIBBIY YORDAM



Har qanday askarlar “MARCHPAWS^{XR}” dasturini o’rganishlari natijasida yaradorlarning turli xildagi jarohatlarini tibbiy normalarga asoslanib, tizimli ravishda davolash va barqarorlashtirishlari mumkin. Eng asosiysi bu jarayonni o’rganish juda oson tashkillashtirilgan va soddalashtirilgan tartibda ishlab chiqilgan.

KLINIK / OPERATIV QAROR



Dastur yordamida har qanday darajadagi o’rganuvchilar virtual olamdagi to’liq immersiv muhitlarda zudlik bilan klinik va operativ qarorlar qabul qilish ko’nikmalari oshiriladi. Bu o’rganuvchilarga yuqori darajadagi xavf mavjud vaziyatlarda o’zini yo’qotmay harakat qilishi uchun xavfsiz mashq qilish imkonini beradi.

PROFESSIONALIZM TRENAJYORI



Dastur harbiy kadrlarga jang maydonidagi birinchi yordam ko’rsatishni to’g’ri bajarishni o’rganguncha emas, xato qilmaydigan darajada bajarishni o’rganguncha mashq qilish imkonini yaratadi.



"TACTICAL DEFENSE" LOYIHASI

Strategik kibersport

Tactical Defense

LOYIHAGA TAVSIF

Harbiylar, zaxiradagi askarlar, harbiy oliy bilim yurti kursantlari, yoshlar va shu kabi boshqalarning jangovar taktik bilim va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish, ularni jangga shay holatga tayyorlash va qayta tayyorlash, professional jangovarlik qobiliyatlarini yuksaltirish maqsadida "Tactical Defense" dasturi ishlab chiqildi.

FOYDALANUVCHILAR SONI

Jamoaviy jang qilish imkoniyati mavjud ushbu dasturdan 12 nafar foydalanuvchi (har jamoada maksimum 6 nafardan) foydalana oladilar. Biroq buyurtmachi talabiga ko'ra foydalanuvchilar miqdori oshirib yoki kamaytirib beriladi.

JAMOAVIY YOKI YAKKA

Dasturdan jamoaviy yoki yakka tartibda foydalanish mumkin. Yakka foydalanganda realistik botlar bilan jang qilinadi. Botlar bilan jang qilganda qiyinlik darajasi yengil, o'rta va og'ir turlarga ajratilgan.



"Tactical Defense" o'yinidan virtual reallik qurilmalarimiz orqali foydalanib, uning betakror zavqini va energiya bag'ishlovchi kuchini his qiling!



CHEMPIONATLAR VA XAVFSIZ TIZIM



CHEMPIONAT O'TKAZISH



Harbiy askarlarning tibbiy va jangovar tayyorgarlik mahoratini oshirish, sinab ko'rish, baholash, eng yaxshilarini saralab olish (seleksiya) va ularni ushbularga qiziqtirish maqsadida MARCHPAWS.XR hamda "Tactical Defense" dasturlaridan foydalanish bo'yicha butun boshli kuch tuzilmalari yoki mamlakat yoshlari o'rtasida chempionat va turnirlar o'tkazish imkoniyati mavjud.

AXBOROT XAVFSIZLIGI



Dasturlardan foydalanuvchilarning shaxsiy ma'lumotlari, muassasa ma'lumotlari yoki shunga o'xshash boshqa ma'lumotlarning tarqalmasligi uchun axborot xavfsizligi to'liq ta'minlangan. Ma'lumotlardan faqatgina dasturlarni xarid qilgan muassasa mas'ul xodimlarigina foydalana oladilar. Ularga axborot xavfsizligini ta'minlash bo'yicha batafsil ma'lumot beriladi hamda IT xodimlariga o'rgatiladi.

TARMOQQA BOG'LANISH



Masofaviy chempionatlar internet yoki VPN tarmog'iga ulangan holda tashkil qilinadi. Ma'lum bir manzilda o'tkaziladigan chempionatlarda esa offlayn ham foydalanish mumkin.

"Tactical Defense" dasturi virtual reallik orqali foydalaniladigan ilk Milliy Kibersport O'yini hisoblanadi.



DUNYODA YAGONA ...



ANALOGI MAVJUD EMAS



Loyihada tibbiy vositalar, jumladan, turniket, shaxsiy bog'lov vositasi va elastik bandajlardan foydalanib yaradorni muolaja qilish dunyoda ilk bor real hayot bilan bir xil, umuman farqlanmaydigan tarzda ishlab chiqilgan.

Ushbu funktsiya loyihani harbiy tibbiyot yo'nalishida real hayot bilan uyg'un shaklda tayyorlangan jahondagi yagonaga aylantiradi.

JAHONDA ILK BOR NAZARIY BILIM



MARCHPAWS bo'yicha virtual reallik qurilmalari orqali interaktiv tarzda, to'liq animatsion nazariy bilim beruvchi (o'rgatadigan) simulyatsion dastur bugungi kungacha dunyoda ishlab chiqilmagan.

MARKAZIY OSIYODAGI BIRINCHI JANGOVAR O'YIN



Kibersport o'yinlarini o'ynash va ular bo'yicha chempionatlar o'tkazish imkoniyatini beruvchi hamda askarlarning jangovar tayyorgarligini oshiruvchi kengaytirilgan reallik (XR) o'yini Markaziy Osiyoda ilk bor ishlab chiqildi.

100% mustaqil ta'lim olishga mo'ljallangan.

12



"INSTRUCTOR DASHBOARD" DASTURI VA ANALITIK BAHOLASH

BOSHQARUV VOSITASI



Mijozlarga MARCHPAWS^{XR} loyihasi bilan birga qo'shib beriladigan planshet vositasida boshqariladigan "Instructor Dashboard" dasturi orqali foydalanuvchilar natijalarini avtomatik baholovchi tizim joriy qilingan. Ushbu planshetda foydalanuvchi natijalari dinamikasi analitik shaklda taqdim qilinadi hamda saqlab boriladi.

KENGAYTIRILGAN FUNKSIONALLIK




Unda foydalanuvchilarni yakka yoki guruh shaklda kuzatish, ularning miqdorini tanlash, kuzatilayotgan foydalanuvchi (lar) harakatlarini monitorlarga uzatish mumkin. Shuningdek, amaliyot zallarini, mashg'ulotlarning qiyinlik darajasini va aynan qaysi amaliyotni kim bajarishini tanlash va yana juda ko'plab funkSIONALLIK imkoniyatlari mavjud.

BOG'LOVCHI KO'PRIK



Masofaviy o'tkaziladigan turnir va chempionatlarda mazkur "Instructor Dashboard" dasturi turli manzillardagi foydalanuvchi, kuzatuvchi va operatorlarni bitta tizimga bog'lovchi ko'priq vazifasini bajaradi.



"Instructor Dashboard" dasturidan foydalanishda android yoki iOS operatsion sistemalarini qo'llab-quvvatlovchi istalgan qurilmalarni istalgancha miqdorda qo'llash mumkin.



LOYIHANING O'ZIGA XOS AFZALLIKLARI***

Ishlanmalarning noodatij jamlanmasi



GRAFIKA



ANIMATSIYA



3D O'LCHAM



PROFESSIONAL
AUDIO OVOZLAR

Ovoz rejisjori nazorati ostida
professional dublyaj ustalari tomonidan
yozib olingan rang-barang audio ovozlari.



NAZARIY BILIM



AMALIY BILIM



ONLINE



OFFLINE

SUN'IY INTELLEKT



O'rganuvchilar harbiy tibbiyot va harbiy mashg'ulotlarga oid bilimlarini yanada oshirish va mustahkamlashlari maqsadida loyihaning nazariy bilim olish zalida sun'iy intellekt joylashtirilgan. Undan foydalanishda onlayn bo'lish lozim.

TEXNOLOGIK TRENER

Bir so'z bilan aytganda mazkur dastur:



Insonlar hayotini saqlab qolish uchun mo'ljallangan ta'lim, amaliy mashg'ulot va tibbiy simulyatsiya texnologiyalari sohasidagi so'nggi ishlanmalar majmuidir.



Diagnostika qilishni o'rganish bo'yicha mashq qildiruvchi trener.

Loyihadagi 3D askarlarga kiyim tanlashda milliy armiyamiz askarlari kiyadigan harbiy formalardan foydalanilgan.



BOSHQA ASOSIY FUNKSIYALAR



RATSIYA ORQALI MULOQOT

“Tactical Defense” kybersport dasturida foydalanuvchilar bir-biri bilan virtual reallik qurilmalari orqali ratsiyadek muloqot qila oladilar.



O'Q TEGMASLIGI UCHUN

Qizil zonaga kirgan foydalanuvchi 10 sekunddan ortiq tikka tursa unga o'q tegadi va amaliyotdan chetlatiladi. Amaliyotni o'tirib yoki yotgan holatda bajarishi zarur.



FONARIK YOQISH / O'CHIRISH

Loyihada foydalanuvchi qo'llaridan birini boshiga yaqinlashtirsa fonarik yonadi. Yana bir bor yaqinlashtirsa o'chadi.



OTADIGAN AVTOMAT

Amaliyot zallariga kirgan foydalanuvchi qo'lida avtomat bo'ladi. Unda otish imkoniyati mavjud. Agar avtomat ushlagan qo'lini yelkasi va boshi oralig'iga yaqinlashtirsa avtomat orqa tomoniga tashlanadi.



SUN'IY INTELLEKT IMKONIYATLARI

Sun'iy intellektga Jamol ismi berilgan. Unga ismini aytib murojaat qilish orqali u bilan o'zbek, rus va ingliz tillarida muloqot qilish mumkin.

MARCHPAWS^{XR} dasturida sun'iy intellektning nutqni aniqlash va sintezlash texnologiyalari, “tabiiy tilga ishlov berish” (LLM hamda NLP) kabi yo'nalishlari keng qo'llanilgan.

Loyihada sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash orqali ushbu sohada aholining bilim va ko'nikmalarini oshirish, kadrlar salohiyatini rivojlantirish ko'zlangan.



VIRTUAL VA IMMERSIV TREYNING

VIDEO TASVIRGA OLISH



Bajarilayotgan TCCC mashg'ulotlarini "video tasvirga olish" funksiyasi orqali istalgan vaqtda orqaga qaytarib ko'rish imkoniyati mavjud. Bu esa bilimni takrorlash darajasini oshiradi, qilingan xato va kamchiliklarni tahlil qilish imkonini beradi hamda murabbiylarga ehtiyojni kamaytiradi.

AMALIYOT AVTOMATIK BAHOLANADI



Foydalanuvchi virtual jang maydonida emaklashi, yurishi hamda yugurishi mumkin bo'lgan mazkur dastur yordamida foydalanuvchilar alohida-alohida yoki guruh bo'lib bajarayotgan amaliyotlari avtomatik baholab boriladi.

"CRAWL, WALK, RUN," SSENARIYSI.



Emaklash, yurish va yugurish imkoniyatiga ega ushbu simulyatsion mashq qilish dasturi insonlar hayotini saqlab qolish, jang paytida vaqtni nazorat qilish va bosim ostida tezkor qaror qabul qilish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.



Loyihaning realistik amaliyot zallari jang maydonidagi zonalarga ajratilgan



SSENARIYLASHTIRILGAN JANG MAYDONLARI



QAMRAB OLINGAN VAZIYATLAR

Amaliyot zali sifatida foydalanish maqsadida tabiat, fuqarolik harakati va urush vaziyatining barcha 12 xil holatlari ssenariylari tizimli shaklda ishlab chiqilgan.




-  “tog’li hududda”
-  “sahroda”
-  “suvda”
-  “qorda”
-  “yomg’irda”
-  “shamolda”
-  “tumanda”
-  “o’rmonda”
-  “qorong’uda”
-  “favqulotda vaziyatlarda”
-  “shahardagi tartibsizlik holatida”
-  “kimyoviy, biologik, radiologik yoki atom qurol qo’llanilganda”



MARCHPAWS^{XR} QAYSI ILG'OR TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TAYYORLANGAN?

XR bu → kengaytirilgan reallik bo'lib, Augmented Reality (AR) – ko'paytirilgan reallik, Virtual Reality (VR) – virtual reallik hamda Mixed Reality (MR) – aralash realliklarni o'z ichiga qamrab oladi.

XR IS THE FUTURE



Jahonning ilg'or mamlakatlari harbiy sohada allaqachon XR texnologiyasidan foydalanmoqda.

SPECTRUM OF
EXPERIENCE



HAPTIC
CUES

VR



XR



AR

OLFACTORY





XR TECHNOLOGY

19

Copyright: Real 2016-2025



Buyurtma / Hamkorlik
+998 93 750-01-08
+998 98 880-10-08

**Sizda boshqa loyihalarni ushbu dastur kabi
tayyorlashga qiziqish bo'lsa mazkur
raqamlarga bog'laning.**



TIBBIYOT OLIYGOHLARIGA ZARURMI? – HA.

KLINIK FANLARDA EMERGENCY



MARCHPAWS.XR dasturida jang maydonida jarohat olgan askarlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish o'rganiladi. Birinchi tibbiy yordam ko'rsatish nazariyasi va amaliyoti esa oliygohlar tibbiyot yo'nalishining yuqori kurslarida o'qitiladigan klinik fanlar o'quv dasturida mavjud. Shu bois, ushbu dastur tibbiyot yo'nalishidagi oliygohlar uchun ham zarurdir.

“HARBIY DALA JARROHLIGI”



Bundan tashqari, tibbiyot yo'nalishidagi oliygohlarda “Harbiy dala jarrohligi” fani o'qitiladi. MARCHPAWS^{XR} dasturi nimani o'rganish maqsadida tayyorlangan bo'lsa bu fan ham aynan shu bilimni berishga ixtisoslashgan. Ya'ni ikkalasining mag'zi bir xildir. Shuni alohida ta'kidlash joizki MARCHPAWS^{XR} jahonning so'nggi ta'lim texnologiyalari asosida va NATO standartlarida tayyorlangan.



Bugungi kunda virtual reallik orqali bilim olish dunyoning so'nggi ta'lim texnologiyasidir.



HARBIYLAR UCHUN MAXSUS

“VESTIBULAR?” – BOSH AYLANMAYDI.



Loyihalardan foydalanish asnosida harbiylarda vestibulyar holat oldi olinadi, bunga moslashuvchanlik ko'nikmalari oshiriladi va vestibulyar holatga ko'nikuvchanlik borasida ko'proq mashq qilish imkoni vujudga keladi. Bu esa harbiy xizmatchilar uchun juda zarur ko'nikma hisoblanadi. Vestibulyar holat – bu muvozanatni yo'qotish bilan birga keladigan bosh aylanishidir.

BU – HARBIY TEXNIKA.



O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 28-iyulda “Harbiy maqsadga mo'ljallangan mahsulotlar muomalasi hamda bo'shatilayotgan harbiy-texnika vositalarini tugatish va qayta ishlash sohasidagi faoliyat turlarini litsenziyalash to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi №319-sonli qaroriga 1-ilova 2-bandida “harbiy texnika” atamasiga ta'rif berilgan. Unga ko'ra:

harbiy texnika — jangovar harakatlarni amalga oshirish va ta'minlash, qo'shnlarni o'qitish hamda ularning belgilangan maqsadda foydalanishga tayyorlik darajasini ta'minlash uchun mo'ljallangan texnika.

Yuqoridagiga asoslanib mazkur albomda keltirilgan “tubdan yangilovchi innovatsion mahsulot”larimizni “harbiy texnika” deb ayta olamiz.



Ushbu dasturlar majmui harbiy va ikki xil maqsadga mo'ljallangan mahsulot hisoblanadi.



MA'NAVIY-MA'RIFIY YUKSALISH

ZAKIY SHAXSLAR UCHUN



Mazkur loyiha vositasida jangchining nafaqat taktik tibbiy bilimini amaliy oshirish balki uning ruhiyatini hamda ma'naviy-ma'rifiy ilmini yuksaltirish, zakiy insonlar qilib shakllantirish ko'zlangan.

O'ZLIGINI ANGLAGAN TARAQQIYPARVAR



Tariximizni, unda yashab faoliyat yuritgan buyuk ota-bobolarimizning shonli hayot yo'lini puxta va izchil o'rganish orqali harbiylarda o'zligini anglash ko'nikmasini taraqqiy ettirish rejalashtirilgan.

ENG ZABARDASTLAR TARIXI



Shu maqsadda ushbu dasturda Vatanimiz uzoq va yaqin o'tmishida o'chmas iz qoldirgan sarkardalar, allomalar, davlat va jamoat arboblari, ilm-fan namoyondalari, generallar hamda jadidlarning eng zabardastlaridan 30 nafarining hayoti va ijodi virtual real tarzda yuqori sifatli grafika va animatsiyalar orqali o'rganiladi.












O'ZBEK TILIDAGI
AUDIO OVOZ



VIRTUAL REAL SHAKLDAGI,
VIZUAL, QISQA METRAJLI
XUJJATLI FILM



LOYIHADAGI 30 NAFAR ZABARDAST OTA-BOBOLARIMIZ RO'YXATI:*



* Ushbu ro'yxat loyihani ishlab chiqaruvchi tomonidan bir qator tarixchi professor-o'qituvchilar nuqtai-nazariga asoslanib shakllantirilgan. Tarkibidagi ma'lumotlar tarixchi olim Umid Bekmuhammad tomonidan jamlangan.



TOPQIRLIKNI TEKSHIRUVCHI TOPSHIRIQ

Dasturning qiziqarlilik darajasini oshirish hamda foydalanuvchilarning topqirligi va zihnini tekshirish maqsadida 12 ta amaliyot zallarining har biriga ulug' ajdodlarimizning bittadan hikmatli so'zi ko'z ilg'amas joylarga yashirilgan. Murabbiy o'z shogirdlaridan butun dastur yoki muayyan zaldan quyidagi hikmatlarni topishni so'rashi mumkin:



TOG'LI HUDUDDA

Dunyoda ilmdan boshqa najot yo'q va bo'lmagay. ~ [Imom Buxoriy](#).



SAHRODA

Tarbiya uch qismdan iborat: badan tarbiyasi, aqliy tarbiya va axloq tarbiyasi. ~ [Abdurauf Fitrat](#).



SUVDA

Jahonda bo'lmasa muallim agar, Hayot ham bo'lmasdi go'zal bu qadar. ~ [Abdurahmon Jomiy](#).



QORDA

Har bir insonning qadr-qimmati o'z ishini qoyil qilib bajarishida. ~ [Abu Rayhon Beruniy](#).



YOMG'IRDA

Tilingdan chiqqan sadaqang (ya'ni, pandu nasihating va ma'viza-yu hasanang) ba'zan qo'lingdan chiqqan sadaqangdan xayrliroqdir. ~ [Abulqosim Zamaxshariy](#).



SHAMOLDA

Hozir sen general bo'lmasdan ham generallik izzat-hurmatini ko'rishing mumkin. Buning uchun yoshlarning g'ayratini tan olishing, yoshlarning yelkasiga qoqishing kerak. ~ [Abdulla Qahhor](#).



TUMANDA

Hayo - insonning abadiy go'zalligi va latofatidir. Hayosiz yuz jonsiz jasadga o'xshaydi. ~ [Abu Ali Ibn Sino](#).



SHAHARDAGI TARTIBSIZLIK HOLATIDA

Gulning go'zalligi urug'idan; insonning husni esa qalbidandir. ~ [Mavlono Jaloliddin Rumi](#).



SOS

FAVQULOTDA VAZIYATLARDA

Ko'rdimki, eng noyob ne'mat rostgo'ylik va qahramonlik, eng og'ir og'riq esa yomon va munofiq do'stlar ekan. ~ [Najmiddin Kubro](#).



O'RMONDA

Fikr bildirganda: «Bu – mening qarashim», deb ayting. ~ [Imom G'azzoliy](#).



QORONG'UDA

Sizlarga vasiyat qilaman. Maorif yo'lida ishlaydurg'on muallimlarning boshini silangizlar! ~ [Mahmudxo'ja Behbudiy](#).



KIMYOVIY, BIOLOGIK, RADIOLOGIK YOKI ATOM QUROL QO'LLANILGANDA

Qurolingni ilmdan yasa. Martabani sabrdan izla. ~ [Imom Moturidiy](#).



*LOYIHA IJROCHILARI

HARBIY TIBBIYOT MUTAXASSISLARI

“MARCH PAWS” bo'yicha ushbu davlatlarda bir necha bor malaka oshirib kelganlar.



**Tibbiy xizmat
podpolkovnigi**

Xolxodjayev Avaz
Akbarovich



**Tibbiy xizmat
podpolkovnigi**

Abdusamatov Djamoliddin
Muxiddinovich



**Tibbiy xizmat
podpolkovnigi**

Sodiqov Shuxrat
Shokirjonovich



**III-darajali
serjant**

Gulomov Asrorjon
Akmaljon O'g'li



**III-darajali
serjant**

Karimova Ozoda
Esonovna



*LOYIHA IJROCHILARI

“REAL” ILMIY ISHLAB CHIQRISH MARKAZI MUTAXASSISLARI



Hakimboy
Yo'ldoshov
Loyiha menejeri



Boltayev
Gulomjon
Tizimlar loyihachisi



Utkirbek
Karimov
Bosh dasturchi



Tursunboy
Sobirov
Ma'lumotlar bazasi rahbari



Hayotbek
Raximbayev
Ta'minot rahbari



Mirmuhammad
Ro'zmetov
Marketing rahbari



Izzat
Hajiyev
Tekstura dasturchisi



Elbek
Raximov
Dasturchi



Qabuljon
Yusupov
Dasturchi

OVOZ YOZISH MUTAXASSISLARI



Oybek
Toxirov
Dublyaj rejisiori



A'loxon
Sodiqova
Dublyaj aktyori



Abdullajonova
Kamila
Dublyaj aktyori



Isfandiyor
Homidov
Dublyaj aktyori



Farxod
Beknazarov
Ovoz operatori



Umid
Bekmuhammad
Tarixchi olim



Javlonbek
Jahongirov
Video materiallar
mutaxassisi



Avazbek
Yo'ldoshov
Grafika dasturchisi



Quvonch
Usmonov
Texnik usta

BOSHQA ASOSIY MUTAXASSISLAR



REJALASHTIRILGAN LOYIHALAR AMALDA

LOYIHALARNI TAYYORLASH BO'YICHA YO'L XARITASI

Nº	Loyiha nomi	Tayyorlanish muddati	Holati
1	"MARCHPAWS ^{KR} " dasturi	2025-yil, iyul	Tayyor 
2	"Tactical Defense" dasturi	2025-yil, iyul	Tayyor 
3	"Instructor Dashboard" dasturi*	2025-yil, iyul	Tayyor 
4	"Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik" fani dasturi	2026-yil, mart	Tayyorlanmoqda
5	"Birinchi tez tibbiy yordam ko'rsatish" dasturi**	2026-yil, may	TZ tayyorlanmoqda
6	"Texnika xavfsizligi" dasturi**	2026-yil, avgust	Ishchi guruh tuzilmoqda

* "Instructor Dashboard" dasturi yuqoridagi jadvalda ko'rsatilgan barcha dasturlarning xavfsiz tizimini ta'minlash, ularni boshqaruv vositasi, ma'lumotlarini saqlash vositasi hamda foydalanuvchilarni avtomatik baholash va analitik kuzatish vositasi funksiyalarini bajaradi.

** "Birinchi tez tibbiy yordam ko'rsatish" va "Texnika xavfsizligi" hayotiy zarur bilimlar sirasiga kirib, ularni yoshi, jinsi, ish joyi va lavozimidan qat'iy nazar barcha bilishi shart hisoblanadi. Shu bois mazkur yo'nalishlarda nazariy hamda amaliy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish imkonini beruvchi dasturlar yuqori saviyada va sifatda tayyorlanishi rejalashtirilgan.



MAHSULOT TARKIBI

TEXNIK JIHOZLAR TARKIBI:

12 ta

META QUEST 3S



CPU: Snapdragon XR2 Gen 2
Display: Dual 1832 × 1920 panels, 90–120 Hz refresh rate, 96° horizontal FOV, 90° vertical FOV
RAM: 8 GB
Storage: 128 GB or 256 GB internal storage
Cameras: 4 tracking sensors for controllers, 2 RGB cameras for passthrough mode
Battery: 4324 mAh
Dimensions: 191.5 × 102 × 142.5 mm, 514 g
Nazariy va amaliy bilim olishda asosiy o'quv quroli.

1 ta

KOMPYUTER



Motherboard: ASUS ROG Strix Z790-E
CPU: Intel Core i9 – 14900K
CPU Cooler: ASUS ROG STRIX LC II 360 ARGB WHITE
SSD (Storage): Samsung 990 PRO 2TB M.2 NVMe
RAM: Kingston Fury RGB 128GB (32GB × 4) DDR5 6000MHz
GPU: GeForce RTX™ 5090 GAMING OC 32G
PSU: Corsair HX1500i 1500W 80+ Platinum
Case: Pro Gaming 715
Case Fans: 10× ARGB Fans
Loyiha sifati va yuqori grafikani ta'minlab beruvchi jihoz. Ma'lumotlar saqlanuvchi manbaa.

1 ta

INTERAKTIV MONITOR



Interactive Touch Panel (Monitor)
Display: "75", 4K (3840×2160), anti-glare, 60 Hz
Touch: Infrared or capacitive, up to 20 touch points
Processor: Quad-core, integrated GPU
Memory: 4 GB RAM, 32 GB ROM
Interfaces: HDMI (2–3), USB (4), RJ-45, Wi-Fi 2.4/5 GHz, Bluetooth
Audio: 2×10W speakers, 3.5 mm AUX
Features: Wireless screen mirroring (Miracast, AirPlay), screen recording, stylus support
Ma'lumotlarni ekranda namoyish qilish.

1 ta

PLANSHET



Xiaomi Redmi Pad SE
Operating System: Android 13
Processor: Qualcomm Snapdragon 680
Internal Storage: 128 GB
RAM: 4 GB
Battery Capacity: 8000 mAh
Display Resolution: 1920 × 1200
Refresh Rate: 90 Hz
Wireless Connectivity: Wi-Fi, Bluetooth
Boshqaruv vositasi.

1 ta

WI-FI ROUTER



Tenda TX2 Pro (Wi-Fi Router)
Wi-Fi Standard: Wi-Fi 6 (802.11ax)
Speed: 2.4 GHz – 300 Mbps, 5 GHz – 1201 Mbps
Ports: 1× Gigabit WAN, 3× Gigabit LAN
Antennas: 5 external antennas (6 dBi)
Technologies: MU-MIMO, OFDMA, Beamforming
Security: WPA3, Parental Control, Blacklist
Management: Via Tenda mobile app
Supports: IPv6, IPTV, Guest Wi-Fi
Loyihadan foydalanish jihozlarini bir-biri bilan bog'lab berish vositasi.

1 ta

SERVERNIY KEYS



Floor Standing Cabinet
Height (U): 42U (2050 mm)
Equipment width: 19"
Overall dimensions (mm): 600 × 1000 × 2050
Front door type and material: Perforated
Construction material: Cold-rolled steel sheet
Material thickness: Mounting profile – 1.5 mm; other parts – 1.2 mm
Protection rating: IP20
Jihozlarni tartibli shaklda joylash va yo'qolmasligi uchun.

3 ta

LOYIHA KITOBCHASI *



Loyihadan foydalanishni o'rgatuvchi va baholash me'zonlari to'g'risida axborot beruvchi kitobcha.
Loyihadan foydalanishni o'rganish va baholash me'zonlarini bilish uchun.

1 ta

LOYIHA ALBOMI *



Loyiha to'g'risida batafsil axborot beruvchi albom shaklidagi ma'lumotlar jamlanmasi.
Loyiha to'g'risida batafsil ma'lumotga ega bo'lish uchun.

* Mahsulotlar elektron shaklda ham taqdim qilinadi.



MAHSULOT TARKIBI

DASTURIY MAHSULOTLAR TARKIBI:

Nº	Nomi	Texnik xarakteristikasi*	Miqdori (dona)	Foydalanish maqsadi
1	“MARCHPAWS ^{XR} ” dasturi	Platforms: Windows (.exe), Android (.apk)	1	Harbiy tibbiyot bilimini nazariy va amaliy o'rganish.
2	“Tactical Defense” dasturi	Platforms: Windows (.exe), Android (.apk)	1	Harbiy jangovarlik amaliy ko'nikmasini oshirish.
3	“Instructor Dashboard” dasturi*	Platforms: Web, Android (.apk), iOS	1	Xavfsiz tizimni ta'minlash, boshqaruv vositasi, ma'lumotlarni saqlash vositasi va analitik kuzatuv vositasi.

 * Barcha dasturiy ta'minotlar himoya tizimiga ega.

 Yuqorida qayd qilingan texnik jihozlar va dasturiy ta'minotlar jamlanmasi 1 ta mahsulot hisoblanadi.

 Mahsulotlar yetkazib berilgach hech qanday yillik obuna yoki to'lov talab etilmaydi.

 Xaridorlarga mahsulotlardan foydalanish tartibi ularning muassasasiga borgan holda to'liq o'rgatiladi.



MARCHPAWS^{XR} PREMIUM



"MARCHPAWS^{XR}", "Tactical Defense", "Instructor Dashboard"
dasturlari



+ Texnik jihozlar

~~1,449 mln.* so'm~~ 1,249 mln.* so'm

